ACADEMIC LYCEUM IHT

TIIAME

# “Rustamxon” dostoni

Ruzikulova Gulhayo Farhodovna

# REJA:

- *Doston haqida tushuncha*
- *“Rustamxon”dostoni haqida*
- *Mavzuni mustahkamlash uchun topshiriqlar*

# Baholash mezoni

Dars davomida faol qatnashib to'g'ri javob bergan o'quvchiga **-5 ball** , savollarga to`liq javob bergan,lekin barcha topshiriqlarda faol qatnashmagan javob o'quvchiga **-4 ball** , savollarga javob berishda xatolarga yo`l qo'ygan,faol qatnashishga harakat qilgan o`quvchiga **3-ball ,** o`quv qurollari bo`lmagan,savollarga javob berolmagan o'quvchiga- **2 ball**



# Xalq dostonlari haqida

- "Doston" forscha so'z bo'lib, qissa, hikoya, sarguzasht, ta'rif ma'nolarini bildiradi. Adabiy atama sifatida ham folklorning, ham yozma adabiyotning muayyan janrini anglatadi. Xalq og'zaki ilodiga mansub asarlarni yozma dos-tonlardan farqlash uchun ular xalq dostonlari deb yuritiladi.

.

- Favqulodda xususiyatlarga ega qahramonlarning boshidan o'tgan qaltis voqealar she'r va nasriy yo'lda aralash tasvirlangan yirik hajmli, muallifi noma'lum epik asarlar xalq dostonlari deyiladi.

# Xalq dostonlar olimlar tomonidan quyidagi turlarga ajratilgan:

- 1. Qahramonlik dostonlari.
- 2. Jangnoma dostonlar.
- 3. Romanik dostonlar.
- 4. Tarixiy dostonlar.
- 5. Kitobiy dostonlar.



# “Rustamxon” Dostoni 1937-yilda baxshi Fozil Yo'ldosh o'g'li tilidan Hodi Zarif yozib olgan.



# Baxshichilikda foydalaniladigan cholg`u asboblari











# Fozil Yo`ldosh o`g`li kim?



- Fozil shoir 1872-yilda hozirgi Jizzax viloyatining Baxmal tumani Loyqa qishlog'ida tug'ilgan. Yetimlikda o'sgan bo'lajak shoir cho'ponlik qilgan vaqtlarida do'mbira jo'rligida terma va dostonlar aytishga qiziqqan.




- **Fozil Yo'ldosh 40 dan oshiq xalq dostonlarini to'la yod bilgan va betakror talanti bilan aytgan dostonlarining badiiy jihatdan boshqalarnikidan mukammal bo'lishiga erishgan.**
- **“Rustamxon” dostoni ham shunday dostonlardan biri.**

# Rustam kim?



- Dostonning bosh qahramoni Rustam yoshligidan baquvvat, mard va jasur bo'lib ulg'aydi. Doston voqealari rivojida Rustamning qo'rqmas va dovyurakligini, chin insoniylik sifatlarini ko'rish mumkin. Kundoshlari tuhmat bilan onasini yurtdan haydab, dorga osdirmoqchi bo'lganida, Rustam sarosimaga tushmadi. Onasini jallodlar qo'lidan qutqarib: «Adashganning oldi yo'l», - deya yo'lga tushadi va Hukumu tog'ida qo'nim topib, ovchilik bilan kun ko'ra boshlaydi.

# Doston haqida Qisqa rezumi

- «Rustamxon» dostonida o'z davrining ijtimoiy-siyosiy munosabatlari, ishq-muhabbat sarguzashtlari, turli fantastik uydirmalar, ertaklarga xos voqealarning yuksak badiiyati bilan yo'g'rilgan tasvirlar kishini hayajonga soladi. Asar matnida xalqimizning qadimiy, boy tiliga xos fazilatlar, xalqona ibora va ifodalar, shu tilning imkoniyati, nafosati, kuchi va qudrati ham yorqin namoyon bo'lgan.

# Qiziqarli topshiriqlar



**2-topshiriq. "Zehn ziyrakligi" o`yini. Doston matniga tayanib, quyidagi voqealarni mantiqiy ketma-ketlikda tartiblang.**

1. «Bu nimaga sertaraddud bo'lib yuribdi», - deb Huroyim qarasa, Sultonxonni iyartib kelyapti.

2. Bular Urganch, Xorazm, Xeva beklari, Dinkaman xonlari edi.

3.Harchand zo'r urindim, bo'lmadi, sening ham ajaling yetgan ekan, kuning bitgan ekan, - deb bir qirni ko'rsatdi.

4. Huroyim nazar sop shunday qaradi, Hamma keldi, ikki kundosh kelmadi.

5.Maston tilla tangalar evaziga Huroyim ustidan fitna-g'iybat to'la arznoma yozdiradi, firib bilan Oqtosh ahliga tasdiqlatadi va Sultonxonga olib boradi.

| **Tartib:** | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | |

TIIAME

# 3-topshiriq. Dostonda uchraydigan quyidagi so`zlarni izohlang.

| Lanqa | Keraga | Murt | Jul | Iyartirib |
|---|---|---|---|---|
| | | | | |

# “Nima uchun o`xshaydi?” integratsiya o`yini. “Rustamxon” dostonining quyidagi asarlarga qanday o`xshashligi bor?



# Uyga vazifa

**“Rustamxon ” dostonini o’qish!**



# E’tiboringiz uchun rahmat!

**Uyga vazifani bajarish yodingizdan chiqmasin!**

